

“ BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING EKOLOGIK TARBIYASINING RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ”

Dilafruxxon Miraxmedova Nurillohon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedra o'qituvchisi

Abdulhamidova Muhlisaxon Abdulvaqos qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyo miqyosida dolzarb bo'lib borayotgan ekologik muammolarning inson hayoti, faoliyati va salomatligiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish, iqlim o'zgarishi kabi omillarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri yoritib beriladi. Shuningdek, ekologik muammolarning oldini olishda ta'lim tizimining, ayniqsa, umumta'lim maktablarining quyi sinflaridan boshlab ekologik tarbiyani shakllantirishning ahamiyati asoslab beriladi. Yoshlarda tabiatni muhofaza qilish uni asrab avaykash hissi o'quvchilarda bu ekologik tarbiya orqali yanada murakkablashdi eng asosiysi ekologik muommolarning oldini olishda ta'lim tizimidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining. Axborot texnologiyalar orqali ularning tabiatga qizishlari namoyon boladi va ular tabiatni asrab avaylashga yanada Harakat qilishadi. Bu Maqolada ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari, o'quvchilarda ekologik ong, mas'uliyat va tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish yo'llari keng yoritilgan. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda qo'llaniladigan samarali usullar, jumladan, interfaol mashg'ulotlar, amaliy tajribalar, kuzatuvlar va tarbiyaviy tadbirlarning o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari ekologik tarbiyani erta yoshdan boshlab tizimli ravishda tashkil etish jamiyatda barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, atrof-muhit, inson salomatligi, ekologik ong, ekologik tarbiya, quyi sinflar, ta'lim tizimi, tabiatni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, ekologik mas'uliyat.

Аннотация: В данной статье научно и теоретически анализируется негативное влияние глобальных экологических проблем на жизнь, деятельность и здоровье человека. Подчеркивается влияние таких факторов, как загрязнение окружающей среды, нерациональное использование природных ресурсов, изменение климата, на развитие общества. Также обосновывается важность системы образования, особенно формирования экологического образования, начиная с младших классов средней школы, в предотвращении экологических проблем. Благодаря экологическому образованию у молодежи формируется более сложное чувство защиты природы и ее сохранения, и важнейшим фактором в предотвращении экологических проблем является вовлечение учащихся начальной школы в систему образования. Благодаря информационным технологиям проявляется их интерес к природе, и они стремятся еще больше защищать ее. В статье подробно рассматриваются цели и задачи экологического образования, способы формирования у учащихся экологического сознания, ответственности и

бережного отношения к природе. Раскрываются эффективные методы, используемые в реализации экологического образования, включая интерактивные упражнения, практические эксперименты, наблюдения и образовательные мероприятия. Результаты исследования показывают, что систематическая организация экологического образования с раннего возраста способствует обеспечению устойчивого развития общества.

Ключевые слова: экологические проблемы, окружающая среда, здоровье человека, экологическая осведомленность, экологическое образование, младшие классы, система образования, охрана природы, устойчивое развитие, экологическая ответственность.

Abstract: This article scientifically and theoretically analyzes the negative impact of global environmental problems on human life, activity and health. The impact of factors such as environmental pollution, misuse of natural resources, climate change on the development of society is highlighted. It also substantiates the importance of the education system, especially the formation of environmental education starting from the lower grades of secondary schools, in preventing environmental problems. The sense of protecting nature in young people and preserving it has become more complex in students through this environmental education, and the most important thing in preventing environmental problems is the involvement of primary school students in the education system. Through information technologies, their interest in nature is manifested, and they strive to protect nature even more. This article extensively covers the goals and objectives of environmental education, ways to form environmental awareness, responsibility and a careful attitude towards nature in students. The effective methods used in implementing environmental education, including interactive exercises, practical experiments, observations, and educational activities, are revealed. The results of the study show that systematic organization of environmental education from an early age serves to ensure sustainable development in society.

Keywords: environmental problems, environment, human health, environmental awareness, environmental education, lower grades, education system, nature conservation, sustainable development, environmental responsibility.

KIRISH

Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb global masalalardan biriga aylangan. Aholi sonining tez sur'atlarda ortib borishi, sanoat va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, tabiiy resurslardan noo'rin foydalanish natijasida atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar yildan yilga kuchayib bormoqda. Ayniqsa, chiqindilar hajmining ko'payishi, havoning ifloslanishi, suv tanqisligi va o'rmonlarning qisqarishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Bu jarayonlar nafaqat tabiatga, balki bevosita inson salomatligiga ham jiddiy xavf tug'dirmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining aksariyati sog'liq uchun xavfli bo'lgan havodan nafas olmoqda va har yili millionlab insonlar havo ifloslanishi bilan bog'liq kasalliklar oqibatida erta hayotdan ko'z yummoqda. Shu bois ekologik muammolarni bartaraf etish faqat texnik yoki iqtisodiy choralar bilan cheklanmasdan, jamiyat a'zolarida,

ayniqsa yosh avlodda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishni talab etadi. Ekologik tarbiyani erta yoshdan, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda bolalarda atrof-muhitga nisbatan munosabat, mas'uliyat va to'g'ri xulq-atvor asoslari qaror topadi. O'zbek pedagog olimlari ta'kidlaganidek, tarbiya jarayonida ekologik bilimlar hayotiy misollar, amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashgandagina samarali natija beradi. Bugungi raqamli davrda ta'lim jarayoniga video darsliklar, interaktiv metodlar, onlayn doskalar va virtual resurslarning joriy etilishi ekologik tarbiyani yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar tabiat go'zalligini bevosita ko'rib, ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini chuqurroq anglaydilar. Natijada ularda chiqindilarni to'g'ri saralash, suv va elektr energiyasini tejash, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi muhim ekologik ko'nikmalar shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rne va ahamiyati tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etish masalalari yoritiladi.

Asosiy: Chiqindilar ko'payishi, hayvonlar va tabiatning yashash muhitining buzilishi natijasida ekologik muammolar ko'payib, inson salomatligiga xavf tug'dirmoqda. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining taxminan 99 foizi nafas olayotgan havosi sog'ligi uchun xavfli hisoblanadi. Har bir kishi buni sezmasa-da, zaharli havo ta'siri ostida yashamoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, har yili dunyoda taxminan 7 million kishi havo ifloslanishi bilan bog'liq kasalliklar tufayli erta vafot etishi kuzatilmoqda. Nima sababdan o'rmonlardagi daraxtlar kesilib, o'rmonlar soni kamayib kelmoqda? Chunki hozirgi kunda sanoat rivojlanayotgani sababli sanoat korxonalari qurilmoqda, yangi uylar, shaharlar, oliy ta'lim muassasalari barpo etilmoqda. Shuningdek, qishloq xo'jaligiga yer ochish maqsadida va zamon rivojlangan bir davrda insonlarning yog'och mahsulotlariga bo'lgan talabi ortgani uchun o'rmonlarga katta zarar yetkazilmoqda. Natijada insonlar uchun kislorod miqdori kamaymoqda, atmosfera ifloslanmoqda, iqlim isib borib ob-havo o'zgarishi yuzaga kelmoqda va bu ekologik muammolarga olib kelmoqda. Chiqindi muammosiga to'xtaladigan bo'lsak, u kundan kunga ko'payib bormoqda. Aholi sonining oshib borishi natijasida qadoqlangan mahsulotlar juda ko'p ishlatilmoqda va ularni qayta ishlash yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Jamiyat nafaqat o'zini, balki bolalarni ham atrof-muhitni asrashga o'rgatishi kerak. Bolalarga nafaqat ota-onalar, balki ustozlar ham tarbiya berishi, chiqindilarni belgilangan qutilarga tashlashni o'rgatishi lozim. Bu faqat tarbiya emas, balki kelajak uchun mas'uliyat hisoblanadi. Bolalarga o'rgatish maqsadida ustozlarning olib borayotgan faoliyati nafaqat jamiyat uchun, balki ekologiya, inson hayoti va salomatligi uchun ham foydali hisoblanadi. Video darsliklar orqali bolalarga tabiatni, ekologiyani va ekologik tarbiyani sekin-asta o'rgatish o'qituvchilarga ham osonlik yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib borayotganligi sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiyaga oid ma'lumotlarni yetkazishda video darsliklar, onlayn doskalar va qiziqarli metodlardan foydalanilmoqda. Video darsliklarni ko'rgan bolalar qiziqarli materiallar orqali tabiatning go'zalligini o'z ko'zlari bilan ko'rib, uning qadriyatlarini chuqurroq anglab yetadilar. Bu

darsliklar orqali o'quvchilarning diqqatini jalb qilish mumkin va ularda ekologiyaga nisbatan mas'uliyat hissi shakllanadi. Nafaqat mas'uliyat, balki bolalarda ijobiy kayfiyat uyg'onib, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ekologik muammolarning tobora kuchayib borishi jamiyat oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Chiqindilar hajmining ortishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi va o'rmonlarning qisqarishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelib, inson salomatligi va kelajak avlod hayotiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu bois ekologik muammolarni hal etishda faqat texnologik va iqtisodiy choralar bilan cheklanmasdan, ekologik ongli shaxsni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirish ushbu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan erta yoshdan bolalarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat, tejamkorlik, atrof-muhitni asrash ko'nikmalari shakllansa, kelajakda ekologik muammolarning oldini olish imkoniyati ortadi. Bu jarayonda ota-onalar bilan bir qatorda pedagoglarning ham mas'uliyati katta bo'lib, ularning faoliyati uzviy va tizimli tarzda olib borilishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar, xususan video darsliklar, interaktiv metodlar va onlayn ta'lim vositalari ekologik tarbiyani samarali tashkil etishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega.

Ushbu vositalar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ekologiyaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shuningdek, raqamli ta'lim resurslari orqali o'quvchilarda chiqindilarni to'g'ri saralash, suv va elektr energiyasini tejash, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi amaliy ko'nikmalar rivojlanadi.

Demak, ekologik tarbiyani boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyatning barqaror rivoji va inson salomatligini muhofaza qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Jo'rayev R.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
3. Saidahmedov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Xoliqov A.A. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent: Fan, 2016.
5. Abdullayeva M. Boshlang'ich ta'limda tarbiya masalalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. To'xtayev A., Hamidov A. Umumiy ekologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
7. O'zbekiston Respublikasi. "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1992 (so'nggi tahriri bilan).
8. Mirzayev M. Ekologik madaniyat va ta'lim masalalari. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Yo'ldoshev J.G'. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.